

ANDIJON VILOYATI HOKIMI STIPENDIANTI VA HALQARO ONLAYN OLIMPIADA G'OLIBI

Zaynobiddinova Durdonabegim Sarvarjon qizi, 1997 yil 15 aprelda Andijon shahrida shifokorlar oilasida tug'ilgan. 2016 yil Andijon Davlat tibbiyot institutiga grant asosida o'qishga qabul qilingan bo'lib, hozirda kasbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha 5-kursda taxsil oladi. Shu kunga qadar ko'plab Respublika va Halqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda o'zining ilmiy yo'nalishdagi ma'ruzalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



1-kursdan boshlab Andijon Davlat tibbiyot instituti umumiy jarroxlilik kafedrasi ilmiy to'garagida qatnashib muntazam ravishda nazariy, amaliy va ilmiy bilim va ko'nikmalarini

boyitib kelmoqda. Bunda kafedraning eng malakali, yuqori salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilari, jumladan Ikramova Farida Daminovna, Vasilevskiy Eduard Aleksandrovich va institutning talabalar ilmiy jamiyati raisi Maxfuza Maksimovnalarning xizmatlari beqiyos.

Zamon talabi bo'lgan kompyuter texnologiyalari va nemis tilini yaxshi o'zlashtirgan.

Erishgan yutuqlarini hisobga olib 2020 yil 17 noyabr talabalar kuni munosabati bilan "Andijon viloyati hokimi stipendiyasi" bilan taqdirlandi.

2020 yil 26-27 noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent Davlat stomatologiya instituti tomonidan tashkil qilingan "Tibbiyot Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida Halqaro onlayn olimpiada" xirurgiya yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib faxrli birinchi o'rinni egalladi.